

NURLANTIRILGAN QUYONLARDA ICHAK REZEKSIYASIDAN KEYIN VEGETATIV GANGLIYALARDA GISTOLOGIK O'ZGARISHI.

Omonov A.T Assistant. Klinik anatomiya kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada tajribada quyonlar rentgen nurida nurlantirilgandan so'ng yonbosh ichagda rezeksiy o'tkazilib, ichaklar vegetative nerv gangliylarining gistologik o'zgarish o'rganildi. Quyosh chigali va intramural ichak nerv tolalarida dastlab, reaktiv o'zgarish bo'lsa keyinchalik degenerative o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: quyon, rentgen nuri, vegetative ganglion, quyosh chigali, ingichka ichak, Bil'shovskiy usuli, Nissly usuli.

ГИСТОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ВЕГЕТАТИВНЫХ ГАНГЛИЯХ ПОСЛЕ РЕЗЕКЦИИ КИШКИ У ОБЛУЧЕННЫХ КРОЛИКОВ

Омонов А.Т. Ассистент Кафедры клинической анатомии

Самаркандский государственный медицинский университет,

Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В данной статье в эксперименте кролики подвергались рентгеновскому облучению, а затем резекции подвздошной кишки, и изучались гистологические изменения вегетативных нервных ганглиях кишечника. Первоначально возникают реактивные изменения в солнечном сплетении и интрамуральных кишечных нервных волокнах, затем следуют дегенеративные изменения.

Ключевые слова: кролик, рентгенография, вегетативный ганглий, солнечное сплетение, тонкий кишечник, метод Бильшовского, метод Ниссли.

HISTOLOGICAL CHANGES IN VEGETATIVE GANGLIA AFTER INTESTINAL RESECTION IN IRRADIATED RABBITS

Omonov A.T Assistant of Department klinikal Anatomy

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: In this article, rabbits were experimentally exposed to X-rays and then ileum resection, and histological changes in the intestinal autonomic ganglia were studied. Initially, reactive changes occur in the solar plexus and intramural intestinal nerve fibers, followed by degenerative changes.

Key words: rabbit, radiography, autonomic ganglion, solar plexus, small intestine, Bielschovsky method, Nissli method.

Kirish. Adabiyotda nurlanish kasalligi paytida vegetativ ganglionlarning o'zgarishi masalasi yoritilgan. Sog'lom quyon va kalamushlarda jigar va o't yo'llarining intramural nerv tizimini o'rganishga bag'shlangan bir qancha ilmiy ishlarni topish mumkin [1]. Me'da va qizilo'ngach devoridagi vena qon tomorlarning vegetative nerv tolalarini normada va jigar sirrozida o'rgangan [2]. Oshqozon va ichakning shikastlanishiga gangliyaning javobi haqida dalillar ham mavjud [3]. Biroq, adabiyotda radiatsiya kasalligida vegetativ ganglionlarning ichak shikastlanishi bilan birgalikda o'zgarishi haqida ma'lumot topilmadi.

Tadqiqot maqsadi. Tajribada rentgen nurlanishi ta'sirida yonvosh ichakda rezeksiya o'tkazilganda, quyosh chigali va ichaklar intramural nerv chigallaridagi gistologik o'zgarishlarni o'rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tajribada 8 ta quyonda birmartalik umumiy rentgen nurlanishining 400 R dozasida berildi. 4 ta quyon nazorat sifatida tekshirildi. Nurlanishdan so'ng turli vaqtlarda quyonlarning yonbosh ichagida 15 sm uzunlikda rezeksiyasi o'tkazildi. Nerv tugunlarini gistologik tuzilishni o'rganish uchun anastomozdan 20 sm proksimalda quyosh chigali va ingichka ichakning bir qismi olingan. Materialni Bilshovskiy usuli va Nissl usullari bo'yicha qayta bo'yaldi.

Tadqiqot natijalari. Bizning ilmiy tadqiqod natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, rentgen nurlanish ta'siri ostida quyonlarning quyosh chigalida va yonbosh ichakning intramural nerv chigallarid morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Nurlanishdan keyingi dastlabki bosqichlarda o'zgarishlar reaktiv xarakterga ega bo'lib, keyinchalik o'zgarishlar degenerativ xarakterga ega bo'ladi. Nurlanishdan 1-6 oy o'tgach, ichak rezektsiyasi amalga oshirilgan hollarda ichak anastamozlar sohasida yaralarning bitishi sezilarli sekinlashgani kuzatilgan. Xuddi shu quyonlarning quyosh chigalidan va ingichka ichak intramural nerv chigallari o'rganilganda nerv tolalari va nerv xujayralarida morfologik o'zgarishlar degenerativ xarakterga ega. Nurlanishdan so'ng keyingi bosqichlarda (2-6 oy) yonbosh ichaklari o'rtasidagi anastamozlarning regeneratsiya jarayoni ancha sekinlashgan. Ammo nurlanishdan keyin 1 oy o'tgan quyonlarda yonbosh ichaklar anastomozida buning aksi kuzatiladi. Shu bilan birga quyosh chigalida va ichaklarning intramural nerv chigallarida degenerative o'zgarishlar kam kuzatiladi. Nazorat guruhidagi o'uyonlarda o'tkazilgan ichak rezektsiyasidan keying anastamozlarning regeneratsiyasi odatdagidek davom etadi. Quyosh chigalida va ichaklarning intramural nerv chigallaridagi degenerative o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ayniqsa ichaklardagi shiliq osti vegetative nerv tolalari va nerv xujayralarida degenerative o'zgarishlar uchramaydi.

olingan ilmiy tahlillardagi ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkin sog'lom quyonlarda o'tgazilgan icak rezektsiyasidan keyin anastmoz sohasidagi to'qimalarning regeneratsiya jarayoni odatdagidek kechsa, nurlantirilgan quyonlarda aksinch rezektsiyadan keying to'qimalarning tiklanishi ancha sekinlashadi. Shu bilan birga quyosh chigalida va intramural nerv chigallarida degenerative o'zgarishlar sezilarli kuzatiladi.

Xulosa. Tajribada nurlantirilgan quyonlarning quyosh chigalida va yonbosh ichak intramural nerv chigallarida degenerative o'zgarishlar sodir bo'ladi. Buning oqibatida rezektsiya sohasidagi to'qimalar regeneratsiyasi juda sekinlashadi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, quyosh chigali va intramural ichak apparatiga

ta'siri nurlanish kasalligida ichak yaralarini davolash jarayonini normallashtirish uchun vositalarni topishda istiqbolli bo'lishi mumkin.

REFERENCES| ЧОҚҚИ | IQTIBOSLAR:

1. Abdullaeva, D. R., Ismati, A. O., & Mamataliev, A. R. (2023). Features of the histological structure of extrahepatic bile ducts in rats. *Golden brain*, 1(10), 485-492 (in Russ).
2. Mamataliev, A., & Oripov, F. (2021). Histological structure of the intramural nervous apparatus of the common bile duct and gallbladder in a rabbit, in norm and after gallbladder removal. *Journal of Biomedicine and Practice*, 1(3/2), 117-125(in Russ).
3. Mamataliev, A. R., Tukhtanazarova, Sh. I., Zokhidova, S. Kh., Omonov, A. T., & Rakhmonov, Sh. Sh. Anatomical and topographic structure and active contraction of the walls of the portal vein of laboratory animals. *Academic research in modern science*, (2024). 3(30), 163-168(in Russ).
4. Satybaldiyeva, G., Minzhanova, G., Zubova, O., Toshbekov, B., Rasulovich, M. A., Sapaev, B., ... & Khudaynazarovna, T. I. Behavioral adaptations of Arctic fox, *Vulpes lagopus* in response to climate change. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, (2024); 22(5): 1011-1019.
5. Mamataliev, A. R. (2024). Nervous apparatus of extrahepatic bile ducts in rabbit after experimental cholecystectomy. *International journal of recently scientific researcher's theory*, 2(4), 161-165(in Russ).